

InnoWeek.Uz 3-8 noyabr kunlari onlayn formatda bo'lib o'tadi



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlantirish vazirligi tomonidan 3 noyabrdan 8 noyabrga kunlari an'anaviy tarzda har yili o'tkazib kelinayotgan InnoWeek.uz 2020 xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi ilk bor onlayn formatda o'tkaziladi.

Tadbirda 30dan ortiq davlatlar hamda Avstriya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Italiya, Isroil, Rossiya, AQSH va boshqa mamlakatlardan nufuzli tashkilot vakillari, ilm fan yetakchi mutahassislari ishtirok etishadi.

Haftalik o'tkazilishning asosiy maqsadi mamlakatning xalqaro maydonda raqobatdoshligi va innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida rivojlantirishdir.

Haftalik doirasida dunyodagi 30 dan ortiq xorij kompaniyalari vakillari birinchi onlayn innovatsion xalqaro ko'rgazmasiga ishtirok etishadi. Yangi formatdagi ko'rgazma maydoni eng ilg'or innovatsion texnologiyalar, mahsulotlar va loyihalar, shuningdek ichki va tashqi biznesning turli soha vakillari o'rtasidagi hamkorlik uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi.

InnoWeek.uz haftaligi dasturi ko'rgazmadan tashqari bir qancha qiziqarli tadbirlarni o'z ichiga olgan:

- 3-5-noyabrda oltita sessiyadan iborat Xalqaro innovatsion va investitsion forum
- 3-8-noyabrda Xalqaro International Robotics Challenge musobaqasi
- 3-5-noyabrda Birinchi an'anaviy xalqaro yoshlar innovatsion forumi - 2020 yil World youth innovation forum – 2020
- 3-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tinch okeani iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO) Osiyo-Tinch okeani texnologiyalar transferi markazi bilan hamkorlikda "Covid-19 pandemiyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda innovatsiyalar va texnologiyalarning yangicha paradigmalari" mavzusida mintaqaviy seminar
- 5-7-noyabrda Evropa Ittifoqi ekspertlari ishtirokidagi vebinar - Horizon Europe;

Haftalik doirasida "Bank ishlanmalari" platformasining taqdimoti bo'lib o'tadi, bu kraufdanding imkoniyatiga ega bo'lgan startapni ishga tushirish uchun

potentsial investorlar va ishbilarmon farishtalarni topish uchun noyob platformaga aylanadi va shuningdek boshqa qiziqarli tadbirlar va taqdirlash marosimlar:

- "Innovatsion g'oya yetakchisi" ko'krak nishoni taqdirlash marosimi
- "Ilm-fan va taraqqiyot" mavzusidagi eng yaxshi publitsistik maqolalar tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi

Innoweek.uz veb-saytida ro'yxatdan o'ting va Haftaning barcha tadbirlarida ishtirok eting!

Dastur to'g'risida ma'lumot: <https://innoweek.uz/programda>

Obuna bo'ling va yangiliklardan xabardor bo'ling:

Facebook <https://www.facebook.com/SP-CENTERuz-2212561179054626>

Instagram <https://instagram.com/spcenteruz>

Telegram https://t.me/innovation_centerashkent